

Sanamlarga ibodat qilish



18:08 / 21.03.2021 3613

Ularga bu kifoya qilmadi, balki toshlarni o'yib (uni but sanamga aylantirib), natijada o'sha sanamlarga ibodat qildilar. Toshlarga, xuddi Nuh ummati va Od qavmi ibodat qilganidek ibodat qiladigan bo'ldilar. Alloh ularni toshlar ustidan hukmron qilgan edi, lekin ular johilliklaridan, toshlarning quliga aylandilar. Albatta, Alloh ularga ikrom qilib, yaxshiliklar bilan rizqlantirdi. Lekin ular o'zlari va insoniyatni xorladilar.

«Albatta Alloh insonlarga aslo zulm qilmas. Lekin insonlar (o'zlari) o'zlariga zulm qilurlar» (*Yunus surasi, 44-oyat*).

Ajabo, ular qo'llari bilan yo'nib-taroshlayotgan toshlar sira-sira o'z hokimlariga isyon qilmaydi. Nima qilsalar, jim turib berishadi. Qiziq (hokim inson o'ziga to'la bo'ysundirilgan toshlar poyiga) bosh ursa, sajdalar etib sig'insa-ya?! Kuchli hech bir zamonda zaifga ibodat qilganmi?! Podshoh o'z quli oyog'iga sajdalar etib

sig'inganmi?! Insonlar Allohni unutdilar. Insonlar o'zlarining kim ekanliklarini unutdilar. Insonlar kuch-qudratda tengsiz yakkayu yolg'iz Allohga qul bo'lishni xohlamadilar. Bas, natijada Alloh ularni xor qilib qo'ydi.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad